

DARS №8



Медиа сабак

MAVZU:

**TANQIDIY
FIKRLASH**

Tasavvur qiling, siz yangiliklarni tomosha qilyabsiz va sizga ushbu suratni ko'rsatishmoqda.

Nima deb o'ylaysiz, bu yerda nima sodir bo'lmoqda?

Ushbu surat bilan yangiliklarda nima haqida gapirishadi?





Endi boshqa saytni tomosha qilyapsiz va u yerda bunday rasmni ko'rasiz.

Nima deb o'ylaysiz, bu reportaj nima haqida bo'ladi?

Endi keling u aslida nima haqida ekanligini ko'rib chiqsak.
Kutulmagan holat, shunday emasmi? Demak, haqiqatni
ko'rsatish mumkin ammo to'liq emas va natijada ma'no o'zgarib boradi.



Bunday qarmoqlarga ilinib qolmaslik uchun tanqidiy fikrlash ko'nikmasini rivojlantirish lozim.

Uning yordamida biz o'zimizni yolg'on, noto'g'ri ma'lumotdan himoya qilishimiz mumkin.



Tanqidiy fikrlashning elementlari:

O'qishning asosiy natijasi: quyidagi savollarga javob bera olsangiz:

Men nimani bilaman?

Men uchun nima yangilik bo'ldi?

Men buni bilib nima qilaman?

Buni kim aytgan?

Bu manba ishonchlimi?

Dalillar bormi?



FIKRLASH – bu qabul qilingan ma’lumotni miya qayta ishlash jarayoni.

TANQIDIY FIKRLASH – bu qabul qilingan barcha ma’lumotga birdek ishonavermay, ularni aql tarozisida o’lchab ko’rish.

Agar dalil bo’lmasa, siz bunga ishonmaysiz.

Ammo, shu bilan bir qatorda tanqidiy fikrlash – bu yangi g’oyalarga ochiq bo’lishni anglatadi.



Tanqidiy fikrlash

O'z-o'ziga savollar berish

Ularga to'g'ri javob berish

Qarorlar qabul qilish



“Kakku va xo’roz” ertagini o’qib chiqing.

Unga nisbatan har hil savollar beramiz:

Oddiy savollar:

Nima sodir bo’ldi?

Qayerda sodir bo’ldi?

Qachon sodir bo’ldi?

Bunga javob berish orqali faktlarni
bilib olishimiz mumkin

(Kakkuni kim maqtadi?)



Aniqlovchi savollar. Odatda ular quyidagi so'zlardan boshlanadi: "Ya'ni, siz buni ...?", "Agar men to'g'ri tushungan bo'lsam, unda ...?".

Odatda, ko'zda tutilgan ma'lumotlarga aniqlik kiritishni so'rashadi.
(Agar to'g'ri tushingan bo'lsam, kakku va xo'roz chiroyli kuylashdi, shundaymi?)

Tushuntiruvchi savollar. Odatda "Nega?" So'zidan boshlanadi.

Ko'pincha ular sabab va natijani aniqlashga qaratiladi.

(Nega xo'roz kakkuni maqtamadi?)



Ijodiy savollar.

Odatda ular “edi” so’zi bilan yasaladi.

*„Nima o’zgargan bo’lar edi?“,
„Nima bo’lgan bo’lar edi?“*

*(Agar xo’roz kakkuni maqtamaganida,
kakku nima qilgan bo’lar edi?)*

Baholovchi savollar.

Nima bo’lganini baholashga qaratiladi.

*(Nima uchun xo’roz va kakku bir-birini
maqtamadi?)*



Amaliy savollar.

Bu kabi savollar nazariya va amaliyot o'rtasida ko'prik vazifasini o'taydi.

“Buni qanday amalga oshirish mumkin?”

Endi nima qilish mumkin?”

(Agar xo'roz yoki kakkuning o'rnida bo'lganingizda nima qilar edingiz?)



Xulosalar:

Tanqidiy fikrlashni rivojlantirishda o'qish yordam beradi.

Barcha eshitgan va ko'rgan narsaga ishonib bo'lavermaydi. Uning haqiqat ekanligiga shubha bilan qarash va ma'lumotni tekshirib ko'rish lozim.

Ma'lumotning to'g'ri yoki yo'qligini savollar berish orqali bilish mumkin: Bu ma'lumotni menga kim yetkazdi? Ma'lumotni yetkazgan manba ishonchlimi? Bu ma'lumot bilan men qanday munosabatda bo'lishim kerak?